


## TARIX

1. Qaysi javobda nomi keltirilgan tarixiy shaxs qo‘zg‘olon rahbari **bo‘limgan?**
  - A) Lyu Ban
  - B) Demokrit
  - C) Frada
  - D) Spartak
  
2. Quyidagi qaysi voqeа Rossiya imperatori Nikolay II hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi?
  - A) birinchi jahon urushining tugashi
  - B) Uchlar ittifoqining tashkil topishi
  - C) Rossiyaning birinchi jahon urushidan chiqishi
  - D) birinchi jahon urushining boshlanishi
  
3. Quyida berilganlardan qaysilar AQShning 1776-1800-yillardagi tarixi bilan **bog‘liq emas?**
  - 1) "Gomstedlar to‘g‘risidagi qonun";
  - 2) Mustaqillik Deklaratsiyasi;
  - 3) "Taraqqiyat davr"; 4) Konstitutsiya qabul qilinishi; 5) "dollar diplomatiyasi";
  - 6) Prezident lavozimi joriy etilishi
  - A) 2, 3, 5
  - B) 2, 4, 6
  - C) 1, 3, 5
  - D) 1, 4, 6
  
4. Nuqtalar o‘rniga mos keladigan javobni toping. O‘rtalasrlar:
  - 1) Usmonlilar davlati – Mexmet II;
  - 2) Vizantiya imperiyasi – Yustinian I;
  - 3) Muqaddas Rim imperiyasi – ...
  - A) Filipp IV
  - B) Buyuk Alfred
  - C) Otton III
  - D) Asparux
  
5. Qadimgi Rimda kimlar kolonlar deb atalgan?
  - A) erkin dehqonlar
  - B) yermi ijara ga beruvchilar
  - C) qullar
  - D) mayda yer ijarachilar
  
6. XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligining savdo-sotiq va madaniy markazlari hisoblangan shaharlarni aniqlang.
  - 1) O‘s; 2) Turkiston; 3) Kitob; 4) G‘uzor
  - A) 2, 4
  - B) 1, 2
  - C) 2, 3
  - D) 1, 3
  
7. 1745-yilda jung‘orlar Farg‘ona vodiysiga yangidan hujum boshlagan paytda dushmanqa qarshi qaysi urug‘lar birgalikda kurashdi?
  - 1) mang‘itlar; 2) minglar; 3) yuzlar;
  - 4) kenagasarlar; 5) qipchoqlar; 6) qo‘ng‘irotlar;
  - 7) qirg‘izlar
  - A) 1, 2, 4, 6
  - B) 2, 3, 5, 7
  - C) 1, 3, 5, 6
  - D) 2, 4, 6, 7

8. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 4, 6
- B) 1, 5
- C) 2, 6
- D) 1, 3

9. Quyida berilganlardan qaysilarida **davlat-shaxs-voqeа** mosligi to‘g‘ri berilgan?
  - 1) SSSR – I. Stalin – tajovuzkor davlat sifatida Millatlar Ligasidan chiqarildi;
  - 2) Qirg‘iziston – K. Bakiyev – "lolalar inqilobi" natijasida hokimiyatdan ag‘darildi;
  - 3) Italiya – Viktor Emmanuil III – Mussolini hukumat boshlig‘i etib tayinlandi;
  - 4) Tojikiston – Imomali Rahmonov – Yevroсиyo iqtisodiy hamkorligini ta’sis qilish to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi;
  - 5) AQSh – Richard Nikson – mamlakatda makkartizm avj oldi
  - A) 1, 3, 4
  - B) 2, 4, 5
  - C) 1, 4, 5
  - D) 2, 3, 4

10. 1870-1918-yillardagi Germaniya tarixiga oid ma'lumotni aniqlang.
  - A) "Antanta" ittifoqiga qo‘shildi.
  - B) Hukumat ichki siyosatda mamlakatni prusslashtirish masalasiga alohida e’tibor berdi.
  - C) Germaniya birinchi marta imperiya deb e’lon qilindi.
  - D) Iqtisodiy taraqqiyotda G‘arbiy Yevropaning eng qoloq davlatiga aylandi.

11. Quyidagi qaysi hukmdorlar mil.avv. VI asrda hukmronlik qilgan?
  - 1) Kir II; 2) Doro III; 3) Aleksandr Makedonskiy; 4) Kambiz II
  - A) 2, 3
  - B) 1, 4
  - C) 1, 3
  - D) 2, 4

- 12.** Quyida berilgan qaysi oqim nomi "tanazzulga yuz tutishlik, umidsizlik kayfiyati, hayotdan bezishlikni aks ettiruvchi oqim" ma'nosini bildiradi?
- A) yevrosentrizm    B) impressionizm  
C) realizm    D) dekidentlik
- 13.** 1919-yildagi Parij konferensiyasida Xitoy qanday talablar bilan ishtirok etgan?
- 1) yapon qo'shinlarining Xitoy hududini bosib olishlarini to'xtatish; 2) chet davlatlarning Xitoya moliyaviy yordam ko'rsatishi;  
3) Shandun orolini ozod qilish; 4) Tayvan orolini Xitoya qaytarish; 5) Xitoyning suvereniteti va yaxlitligini tan olish.
- A) 1, 3, 5    B) 1, 2, 4    C) 2, 3, 5    D) 2, 4, 5
- 14.** Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.
- XIX asr**
- 
- a) Yevropa davlatlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashib, o'z mustaqilligini saqlab qoldi; b) davlatning tashkil topishi AQShda qulchilikka qarshi kurash bilan bog'liq; c) Kassa o'zini mamlakat imperatori deb e'lon qilgan; d) davlatda G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikadagi ilg'or tartib-qoidalar joriy etilgan; e) Adua yonida bo'lib o'tgan jangda Italiya qo'shinlarini mag'lub etgan; f) Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan.
- A) I-c, e; II-b, d; III-a    B) I-b, e; II-c, d; III-a  
C) I-b, f; II-c, e; III-d    D) I-a, b; II-e, f; III-d
- 15.** Quyidagilardan qaysi biri qadimgi Rimda ov xudosi hisoblangan?
- A) Morfey    B) Diana    C) Venera  
D) Merkuriy
- 16.** Tarixiy-mantiqiy bog'liqlik (ketma-ketlik, moslik) to'g'ri berilgan javobni toping.
- A) Usmonli davlati – San-Stefano shartnomasining imzolanishi – amir Habibulloxon hukmronligi davri  
B) Rossiya – Simonoseki sulhining imzolanishi – Nikolay I hukmronligi davri  
C) Eron – birinchi parlament (Majlis)ning chaqirilishi – sulton Abdulaziz hukmronligi davri  
D) Afg'oniston – Dyurand bitimining imzolanishi – amir Abdurahmon hukmronligi davri
- 17.** Quyida berilgan xalifalar davridagi Xuroson va Movarounnahr bilan bog'liq jarayonlar mos ravishda ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- 1) Muoviya I; 2) Sulaymon; 3) Umar ibn Abdulaziz.  
a) xalifalik ma'muriyati tomonidan bir yo'la hammadan jizya olish haqida buyruq berilishi natijasida Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlandi;  
b) Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro hududlariga bostirib kirdi;  
c) Farg'onada isyon ko'targan Qutayba arab askarlari tomonidan o'ldirildi;  
d) Movarounnahrda xalifalikka qarshi "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.
- A) 1-d, 2-b, 3-c    B) 1-b, 2-c, 3-a  
C) 1-d, 2-a, 3-b    D) 1-b, 2-a, 3-d
- 18.** Ilk o'rta asrlarda mamlakatimiz hududlarida shakllangan tabaqalar va ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeい bir-biri bilan mos ravishda berilgan javobni toping.
- 1) dehqon; 2) kadivar; 3) kashovarz  
a) qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi; b) yerli mulkdor toifa; c) yersiz va erksiz qaram toifa
- A) 1-b, 2-c, 3-a    B) 1-a, 2-b, 3-c  
C) 1-a, 2-c, 3-b    D) 1-b, 2-a, 3-c
- 19.** Ma'sud G'aznaviy hukmronligi tugagan yilda bo'lib o'tgan voqeani belgilang.
- A) Ibrohim Bo'ritegin Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oldi.  
B) Qoraxoniyalar davlati barham topdi.  
C) Xorazm Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib goldi.  
D) Somoniylar davlati barham topdi.

- 20.** Buyuk Britaniya mustamlakasi bo‘lgan «oq koloniya»ni toping.  
 A) Avstraliya    B) Eron    C) Afg‘oniston  
 D) Hindiston
- 21.** AQSh da fuqarolar urushi 1865-yilning aprelida Shimolning g‘alabasi bilan tugadi. Natijada ...  
 A) Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi  
 B) “Gomstedlar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi  
 C) Prezident lavozimi ta’sis etildi  
 D) Buyuk Britaniya AQSh ning mustaqilligini tan oldi
- 22.** Quyidagi asarlardan qaysi birida shayboniylar va Eron safaviylari o‘rtasidagi munosabatlar haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan?  
 A) Muhammad Ya’qub ibn Doniyolbiyning "Gulshan ul-muluk" asarida  
 B) Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma" asarida  
 C) Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida  
 D) Abdurahmon Tolening "Abdulfayzxon tarixi" asarida
- 23.** XIX asr oxirida Xitoyda "Ixetuan" ijtimoiy harakati qanday shior ostida faoliyat yuritgan?  
 A) "Manjur sinlarini haydab chiqaramiz, chet elliklarni yo‘qotamiz"  
 B) "Xitoyda monarxiyani qayta tiklaymiz"  
 C) "Inoqlik va muhabbat"  
 D) "Yer va ozodlik"
- 24.** Qaysi voqeadan so‘ng qirol Viktor Emmanuil III Benito Mussolinini hukumat boshlig‘i etib tayinlagan?  
 A) Mamlakatdagi so‘l kuchlar Xalq frontini tuzgandan so‘ng  
 B) 1923-yil davlat to‘ntarishidan so‘ng  
 C) Fashistik guruhlarning mashhur Rimga yurishidan so‘ng  
 D) Mamlakatda Katta fashistik kengash tuzilganidan so‘ng
- 25.** Quyidagi qaysi davlat XXI asr boshida Kopengagenda (Daniya) bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Yevropa Ittifoqiga qabul qilingan?  
 A) Chexiya    B) Belgiya    C) Fransiya  
 D) Italiya
- 26.** Quyidagi ma’lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini toping.  
*“XVI asrda Hindistonda hukmronlik qilgan. Unga qarshi birlashgan mahalliy zodagonlar tomonidan 1540-yilda taxtdan ag‘darilgach, Eron shohi Taxmasp I saroyidan panoh topgan. Uzoq kurashlardan so‘ng, 1555-yilda Dehlini qaytarib olishga muvaffaq bo‘lgan”.*  
 A) Bahodirshoh II    B) Avrangzeb  
 C) Akbarshoh    D) Humoyun
- 27.** XIII asr boshlarida Angliya qiroli tomonidan imzolangan qaysi hujjatda qirol baronlarni qamamaslik, ularning mol-mulkidan mahrum etmaslik shartlarini qabul qilgan edi?  
 A) “Dahshatli sud kitobi”da  
 B) “Mayl End” dasturida  
 C) “Buyuk ozodlik xartiyasi”da  
 D) “Qonunlarning buyuk to‘plami”da

28. Xaritada yulduzcha bilan ko'rsatilgan hududda qadimgi davrda vujudga kelgan davlatni toping.



- A) Koguryo davlati    B) Chjou davlati    C) Maurya davlati    D) Pekche davlati

29. V asrda xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud(davlat)ga harbiy yurish qilgan ko'chmanchi qabila sardorini toping.



- A) Mark Krass    B) Attila    C) Yustinian I    D) Buyuk Karl

30. Quyidagi jadvalda tarixiy voqealari va uning natijasini o'zaro **nomuvofiq** berilgan qatorlarni aniqlang.

Nº	Voqealari	Natija
1.	«Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni	Qo'zg'olochilarining mag'lubiyati
2.	1877-1878-yillardagi Rossiya-Turkiya urushi	San-Stefano shartnomasining imzolanishi
3.	1512-yilda Elbarsxon Xorazm taxtini egalladi	Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligining boshlanishi
4.	Kubadagi 1959-yilgi inqilob	F. Kastroning hokimiyat tepasiga kelishi
5.	1924-yilda O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi	Turkiston ASSR, BXSR va XXSRning tashkil topishi

- A) 3, 5    B) 1, 2    C) 3, 4    D) 1, 5